ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR ( RESEARCH BIB ) – 9.145, SJIF – 5,431

**Musakhanova Gulmira Sobirjon qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

# G‘AFUR G‘ULOM- BUGUNGI YOSHLAR UCHUN ADABIY YO‘LBOSHCHI

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada G‘afur G‘ulom ijodi va hayot yo‘li asosida yoshlar uchun muhim ma’naviy-axloqiy saboqlar tahlil qilinadi. Adibning asarlarida aks etgan insonparvarlik, sabr-toqat, ilmga intilish, vatanparvarlik va haqiqatga sadoqat kabi fazilatlar ochib beriladi. Shuningdek, murakkab tarixiy sharoitlarda uning tutgan o‘rni va ichki kechinmalari orqali bugungi yosh avlod uchun ibratli jihatlar yoritiladi. Maqola yoshlarni mustaqil fikrlashga, adolatni qadrlashga va ma’naviy barkamollikka undashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar**

G‘afur G‘ulom, yoshlar tarbiyasi, ma’naviyat, insonparvarlik, vatanparvarlik, sabr-toqat, haqiqat, adabiy meros, ijodiy tafakkur, axloqiy qadriyatlar

Yoshlik — bu inson o‘z yo‘lini izlaydigan, kim bo‘lishini hal qiladigan eng muhim davr. Ba’zan bitta o‘qilgan kitob, bitta o‘ylangan fikr yoki kimningdir hayoti butun qarashlarni o‘zgartirib yuborishi mumkin. Shunday paytda inson o‘ziga yaqin, chin va rost gapiradigan so‘zlarni izlaydi. Ana shunday samimiy va hayotiy saboqlarni G‘afur G‘ulom ijodidan topish mumkin. G‘afur G‘ulomning asarlarini o‘qir ekansan, undagi gaplar shunchaki yozilganini emas, yashab ko‘rilganini his qilasan. Uning satrlarida ortiqcha bezak yo‘q - hammasi sodda, lekin yurakka yaqin. U insonning ichki kechinmalarini, qiynalishlarini, umid va izlanishlarini juda tabiiy tarzda ko‘rsatadi. Balki shuning uchun ham uning yozganlari bugungi yoshga ham begona tuyulmaydi. Bugungi kunda imkoniyatlar ko‘p, lekin yo‘qolib qolish ham oson. Qaysi yo‘l to‘g‘ri, nimaga ishonish kerak - bu savollar har bir yoshni o‘ylantiradi. G‘afur G‘ulom ijodi esa shoshmasdan, o‘ylab yashashni, sabr qilishni va eng muhimi, o‘zligini yo‘qotmaslikni eslatadi. Shu jihatdan, uning asarlari yoshlar uchun oddiy adabiyot emas, balki ichki yo‘l ko‘rsatkichga aylanadi.

Adibning qaysi bir asarini olmaylik reallikka intilish kuchli ekanligi sezilib turadi, ya’ni har bir asar o’z davrida yuqori darajada ahamiyatli va dolzarb bo’lgan bo’lsa , ular hozir ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Misol keltirish uchun adib she’riyatiga murojaat qilar ekanmiz avvalo “Sen yetim emassan” she’rini namuna qilish lozim. Urush davrida ota-onasidan ayrilib yetim qolgan bolalar, mehrga zor go’daklarga mehr berish kerakligini, Vatan ularni himoya qilishini uqtiradigan shoir ushbu satrlari bilan bugungi kun uchun ahamiyatli jihatini yoritib beradi:

“Sen yetim emassan, Tinchlan, jigarim,

Quyoshday mehribon Vataning — onang,

Xalq bor — otang bor Cho‘chima, jigarim,

O‘z uyingdasan...”

Mazkur satrlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki unda ilgari surilgan g‘oya - inson hech qachon yolg‘iz emasligi, jamiyat va Vatan uni qo‘llab-quvvatlashi - har qanday davr uchun dolzarbdir. Ayniqsa, bugungi globallashuv va ma’naviy izlanishlar davrida yoshlar uchun bu fikrlar yanada muhim ahamiyat kasb etadi. G‘afur G‘ulom bu orqali nafaqat urush davridagi bolalarga taskin beradi, balki har bir inson qalbiga mehr, ishonch va tayanch hissini singdiradi. Shu bois, ushbu she’r bugungi yoshlar uchun ham ruhiy madad va hayotiy saboq bo‘lib qolmoqda.

Yirik shoir va olim Maqsud Shayxzoda she’r haqida “Hozir millionlab kitobxonlarga yod va ko‘p joylari xalqda zarbulmasalga aylanib ketgan “Sen yetim emassan” asari xalqlar do‘stligi uchun, og‘ir urush yillari sovet gumanizmining mustahkamligi uchun qo‘yilgan she’riy haykaldir”, deya yozar ekan, ushbu misralarga ham e’tibor qaratadi: “Bu satrlardagi “ko‘zim usti”, “minnating boshimga durra” kabi ta’birlar o‘zbek milliy xarakterini yaqqol ifodalaydi” degan fikr bildiradi.

Adib ijodini mutolaa qilar ekanmiz, “Avval o’qi” she’ri ham yaqqol ko’zga tashlanadi. Mazkur she’rda adib balog‘at yoshiga yetgan yigitga murojaat qilib, uning oldida turgan hayotiy mas’uliyatlarni eslatadi. She’rning markaziy g‘oyasi - ***ilm olish, sabr qilish, shoshilmaslik va hayotda mustahkam o‘rin egallash zarurligidir.*** G‘afur G‘ulom yoshlarni faqat hissiyot ortidan ergashmaslikka, ayniqsa, erta sevgi yoki yengil qarorlar bilan o‘z kelajagini xavf ostiga qo‘ymaslikka chaqiradi. U bilimni eng katta boylik sifatida ko‘rsatadi va haqiqiy yetuklik faqat o‘qish, izlanish va mehnat orqali kelishini ta’kidlaydi. She’rda **ota obrazi** orqali berilgan nasihatlar juda samimiy va hayotiy: unda majburlash emas, balki mehr, ishonch va umid bor. Shu jihatdan, bu asar bugungi yoshlar uchun ham dolzarb - chunki hozir ham tez natija, oson yo‘l izlash kayfiyati kuchli bo‘lgan bir paytda, sabr va ilmning qadri yanada muhimdir. G‘afur G‘ulom **yosh qalbidagi ilk tuyg‘ularni ham nozik kinoya va hayotiy kuzatish** bilan tasvirlaydi:

*“Qo‘shnidan kelarsa jaranglagan sas,*

*Hushingni elitar ishqning g‘ammozi,*

*Tentagim, bu qizning kulgisi emas,*

*Jonon piyolaning yangroq ovozi.”*

Ushbu satrlarda shoir yosh yigitning ilk his-tuyg‘ularini biroz hazil, biroz mehr bilan tasvirlaydi. Yoshlikda oddiy tovush ham insonga sevgi kabi tuyulishi, tasavvur esa haqiqatni boshqacha ko‘rsatishi mumkin. Shoir bu orqali yoshlarni hissiyotga berilib ketmaslikka, har narsani to‘g‘ri anglab yetishga undaydi.

Shoir ilm va o‘z ustida ishlash masalasini ham alohida ta’kidlaydi:

“*Diplomsiz umrni umr ham dema,*

*Ozgina bilganni, bilmadim deb bil.”*

Bu satrlar orqali G‘afur G‘ulom bilimni eng muhim boylik sifatida ko‘rsatadi. Inson qancha ko‘p o‘rgansa ham, o‘zini hali bilmayman deb his qilishi - haqiqiy kamtarlik va rivojlanish belgisi ekanini anglatadi. G‘afur G‘ulom yoshlarning asosiy vazifasini juda aniq belgilaydi:

*“Ulug‘ besh yillikning qarzi yelkangda,*

*Hali o‘qilmagan minglarcha kitob,*

*Hali institut minbarlaridan*

*O‘nlarcha olimdan tinglaysan xitob.”*

Bu satrlar yoshlar hali oldinda katta yo‘l borligini eslatadi. Hozirgi kunda ham bu juda dolzarb - internet, ijtimoiy tarmoqlar chalg‘itayotgan bir paytda, asl e’tibor bilim va rivojlanishga qaratilishi kerak. Yana bir satrlarida:

*“Konlar — injenerni, tog‘lar — Farhodni,*

*Ustasin chaqirar* tonggi gudoklar...”

Har bir inson jamiyatda o‘z o‘rnini topishi kerak. Bu yerda shoir yoshlarni aniq kasb egasi bo‘lishga, mehnat qilishga undaydi. Bugungi kunda ham “qaysi soha kerak?” degan savol dolzarb - javob esa foydali bo‘lish.

*“Onang oqsutini, otang mehnatin*

*Bilimdon boshingga bag‘ishlar halol.”*

Bu satrlar juda chuqur — ota-onaning qilgan mehnati faqatgina yaxshi o‘qish va muvaffaqiyat bilan oqlanishi mumkin. Hozir ham ko‘p yoshlar shu haqiqatni kech tushunadi.

*“Besh yil — asr emasdir, g‘animat fursat —*

*Endigi yuz yillik umringga garov.”*

Qisqa vaqt ichida qilgan mehnat butun hayotni belgilab beradi. Bu ayniqsa talabalar uchun juda muhim signal: hozirgi vaqt — kelajak poydevori.

*“Siz ancha donoroq, g‘olib bo‘lsangiz,*

*Ayni muddaomiz — shu muddaodir.”*

Bu yerda ota farzandidan faqat bitta narsa kutadi - undan ham yaxshiroq bo‘lishini. Bu har bir yosh uchun katta mas’uliyat va motivatsiya. She’rning deyarli har bir satrida bugungi yoshlar uchun dolzarb bo‘lgan fikrlar mujassam, ilm olish, sabr qilish, hissiyotga berilmaslik, ota-onani qadrlash va jamiyatda o‘z o‘rnini topish. Shu jihatdan, G‘afur G‘ulom ijodi zamondan tashqari qadriyatlarni targ‘ib etadi.

G‘afur G‘ulom - o‘zbek adabiyotining shunchaki yirik vakili emas, balki butun boshli ma’naviy maktabni yaratgan adibdir. Uning shaxsiyati ijodi bilan uyg‘un: hayotni chuqur anglagan, inson ruhiyatini nozik his qilgan va shu tuyg‘ularni sodda, lekin ta’sirli so‘zlar bilan ifodalay olgan ijodkor. Shoirning fikrlarida doimo inson qadri, mehr-oqibat va haqiqatga sadoqat ustuvor turadi. U murakkab falsafalarni balandparvoz gaplar bilan emas, oddiy hayotiy lavhalar orqali ochib beradi. Shu bois uning asarlari har qanday o‘quvchiga yaqin - yoshlar unda samimiyatni ko‘rsa, kattalar chuqur ma’noni anglaydi. G‘afur G‘ulom ijodining qadrli jihati - uning zamondan ustunligidadir. U yozgan fikr va g‘oyalar bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Insoniylik, sabr, vijdon kabi tushunchalar uning asarlarida markaziy o‘rinda turadi va bu qadriyatlar har

qanday davrda zarur. Shu ma’noda, G‘afur G‘ulom - faqat o‘tmish adibi emas. U bugungi kun uchun ham fikrlari, qarashlari va ijodi bilan zarur bo‘lgan, adabiyotimizning o‘chmas nomoyondasidir.